

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

JAHON SIYOSATI, TARIX VA FALSAFA FAKULTETI

XORIJIY MAMLAKATLAR TAIXI YO'NALISHI

DARIY – INGLIZ GURUHI 1 – KURS MAGISTRANTI

MAMAJONOVA SHOIRANING

O'RGANILAYOTGAN MINTAQA DAVLATLARINING RIVOJLANISH

XUSUSIYATLARI FANIDAN

REFERAT

BAJARDI: MAMAJONOVA SH.

QABUL QILDI: ABDULLAYEV N.

MAVZU: MINTAQA MAMLAKATLARIDAGI SIYOSIY JARAYONLAR

REJA:

1. Mustaqil afg'on davlatining tashkil topishi va keying davrlarda unda kechgan siyosiy jarayonlar
2. Eronda XVI – XIX asrda kechgan siyosiy jarayonlar
3. Hindistonda XVI – XIX asrda kechgan siyosiy jarayonlar

XVI asrdan boshlab afg'onlar Eron safaviylari va Hindiston boburiylariga qarshi uzoq yillar davomida mustaqillik kurashi olib borganlar. Sharqiy Afg'oniston Hindiston boburiylariga qaram edi. Asosiy savdo yo'llarini 1649-yil Eron safaviylari egallab oldi va bu holat 1709-yilgacha davom etdi. Eron bosib olgan hududlarda, bir tornondan, afg'on qabilalarini bir-biriga gijgijlash yo'li bilan ularni kuchsizlantirishga uringan bo'lsa, ikkinchi tomondan esa qabilalar hukmdorlariga turli xil unvonlar va yer-mulklar berish evaz,iga ular bilan kelishish siyosatini yuritdi.

Biroq bu siyosatdan ko'zlangan maqsadga erishilmagan. Aksincha, afg'on qabilalari o'z mustaqilliklari uchun qattiq kurash olib bordilar. Hindiston boburiylari hukmronligiga qarshi 1666- yilda ko'tarilgan qo'zg'olonni Avrangzeb Olamgir 1672-yilda bostirdi.

Biroq bu davrda Hindiston va Eronda ham hukmron sulola ehuqur tushkunlik davrini boshdan kechirayotgan edi. Endilikda ular qudratli qo'shin saqiash uchun zarur mablag'ga ega emasdilar. 1709- yilda Qandahor viloyatida Eron bosqinchilariga qarshi qo'zg'olon ko'tarildi. Qo'zg'olonga afg'onlarning gilza qabilasi xoni Mir Vaysxon rahbarlik qildi. Uning harbiy qismi tez orada Qandahor shahrini bosib oldi.

Qisqa vaqt ichida Qandahor qudratli xonlikka aylandi. U 1722-yilda Eron poytaxti Isfahonni ham egalladi va Mir Vaysxonning o'g'li Mir Mahmud o'zini Eron shohi deb e'lon qildi. Endi esa Eron mustaqillik uchun kurash boshladi. Bu kurashga Nodir Quli (1688-1747) boshchilik qildi. U Eron qo'shini qo'mondonlaridan biri edi. 1729-yilda Eron afg'on bosqinchilaridan ozod etildi.

1736-yilda Nodir Quli Eron shohi deb e'lon qilindi. U ayni paytda katta bosqinchilik urushlari ham olib bordi. Chunonchi, 1738-yilda Afg'onistonni ham bo'ysundirdi. Afg'onistonni itoatda tutish uchun Erondan 12 ming jangchini oilalari bilan Kobul va boshqa shaharlarga ko'chirib keltirdi.

1747-yilda Nodirshoh vafot etgach, zulmga asoslangan imperiya ham parchalandi. Bu davda Boburiylar imperiyasi yashayotgan bo'lsa-da, amalda u hech qanday kuch-qudratga ega emas edi. Shu tariqa Afg'oniston davlatining tashkil topishi uchun barcha zarur tashqi sharoit yetildi. Mamlakat ichkarisida esa yagona Afg'oniston davlatini tuzish harakati ham boshlangan edi.

1747-yilda afg'onlarning abdali qabilasi boshlig'i Ahmadxon qabila xonlarining jirg'asi (kengashi) Afg'oniston shohi deb e'lon qildi. Ahmadshoh qisqa vaqt ichida mamlakat hududini bosib olingan o'lkalar hisobiga kengaytira oldi. Bu g'alabalar evaziga u o'ziga «Durri-Duron» unvonini qabul qildi va abdali qabilasining nomini durrani nomi bilan o'zgartirdi. Markaziy hokimiyatga bo'ysunmaslik harakati va bosib olingan o'lka xalqlarining doimiy qo'zg'olonlari oqibatida Durroniylar sulolasining hukmronligi zaiflashdi. Ahmadshohning vorislari bu ikki omilga qarshi qanchalik kurashmasinlar, ularni bostira olmadilar. Ahmadshohning nabirasi Zamonshoh (1793-1801) bobosining bosqinchilik urushlarini davom ettirishga urinib ko'rdi. Ma'lum darajada bunga erishdi ham.

Zamonshoh ham ichki o'zaro nizolarni bostira olmadi. Aksincha, uning o'zi ham fitna qurboni bo'ldi. Bu davrda vorislar o'rtasidagi toju taxt kurashi ham avj oldi. Bundan boshqa qabilalar xonlari foydalanishga urindilar. Chunonchi, barakzaylar yetakchisi Fathxon hali u vorisni, hali bu vorisni taxt uchun kurashda qo'llab, davlatda bosh vazir lavozimini egallab oldi. U 1809-yildan boshlab butun davlat ishlarini amalda o'z qo'lida to'plashga erishdi. U yirik harbiy sardorlardan biri, ukasi Do'st Muhammadxon yordamiga tayanardi. Ular Afg'o-nistonning deyarli barcha muhim viloyatlari hokimlarining o'zlariga qarashli kishilardan tayinlanishiga erishdilar. Uzoq davom etgan o'zaro shafqatsiz ichki urushlardan so'ng 1826-yilda Do'st Muhammadxon Afg'oniston taxtini egalladi va o'zini amir deb e'lon qildi. Shu tariqa Durroniylar sulolasi hukmronligi barham topdi. Mamlakatda Barakzaylar sulolasi hukmronligi o'rnatildi. Amir Do'st Muhammadxon butun Afg'onistonni yagona davlatga birlashtirishga va uni kuchli davlatga aylantirishga harakat qildi.

Afg'oniston geografik jihatdan muhim strategik mintaqada joylashganligi uchun bu davlat hududida Buyuk Britaniya va Rossiya manfaatlari to'qnashdi. Buyuk Britaniya Afg'onistonni o'z ta'sir doirasiga olish maqsadida sikxlarni unga qarshi gijgijlay boshladi. 1838-yil esa o'zi Afg'onistonga hujum qildi. Ingliz armiyasi 1839-yil Kobul shahrini egalladi. Taxtga Durroniylar sulolasining vakili Shuju o'tqazildi. Biroq afg'on xalqini bo'ysundirish oson emas edi. 1841-yil Kobul aholisi qo'zg'olon ko'tardi. Bu qo'zg'olonda Do'st Muhammadning o'g'li Akbarshoh katta rol o'ynadi. Buyuk Britaniya qo'shini qo'mondonligi barcha ingliz harbiy qismlarini

Afg'onistondan olib chiqib ketish to'g'risidagi shartnomani imzolashga majbur bo'ldi. 1842-yil Buyuk Britaniya qo'shini Afg'onistondan chiqib ketdi. Shu tariqa birinchi afg'on - ingliz urushi Buyuk Britaniya mag'lubiyati bilan tugadi. Do'st Muhammadxonning amirlik hokimiyati qayta tiklandi.

1843-yilda «Ost-Indiya» kompaniyasi Hindistonning Sind viloyatini ham bo'ysundirdi. Shu tariqa ingliz mustamlakalari chegarasi Afg'onistonga tutashdi. Inglizlar bilan qayta urushni istamagan Do'st Muhammadxon 1855-yilda ingliz - afg'on do'stlik shartnomasini imzoladi. 1857-yilda Buyuk Britaniya bilan Afg'oniston o'rtasida harbiy shartnoma ham tuzildi. Bu shartnoma Buyuk Britaniya uchun Afg'onistonni vassal davlatga aylantirish yo'lidagi birinchi qadam bo'ldi.

1863-yilda Do'st Muhammadxon vafot etgach, uning o'g'illari o'rtasida toju taxt uchun kurash avj oldi. Hindistonda bo'lib o'tgan sipohilar qo'zg'olonidan cho'chib qolgan Buyuk Britaniya Afg'oniston ichki ishlariga aralashmasligini bildirdi.

Ikkinchi tomondan, O'rta Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan istilo qilinishining boshlanganligi ham Afg'oniston uchun xalqaro qulay vaziyat yaratdi. Shunday bir sharoitda, Buyuk Britaniya Rossiya bilan kelishuv yo'lini izladi. Afg'oniston bu ikki mustamlakachi davlatlarning Osiyodagi mustamlakalarini ajratib turuvchi hudud vazifasini o'tashi kerak edi.

1870-yil Afg'oniston mustamlaka ham, qaram davlat ham emas edi. Biroq lining chegaralariga janubi-sharqdan inglizlar, shimoldan esa Rossiya tobora yaqinlashib kelayotgan edi.

70-yillarda Afg'oniston Rossiya bilan Angliya I o'rtasida bahsga sabab bo'lgan mamlakat bolib qoldi. 1873-yili Angliya Hindiston - Afg'oniston chegarasida harbiy kuch to'play boshladi. Afg'on amiri Sheralixon Rossiyadan yordam so'rab, elchi yubordi. Rossiya bunga javoban kichik bir rus harbiy qismini chegaraga yaqin joylashtirdi. Kobulga general Stoletov boshchiligida elchilik missiyasi yuborildi. Biroq, bundan ortiq harakatlarga jur'at eta olmadi. Bunga - O'rta Osiyoni to'la bo'ysundirish hamda yaqinlashib qolgan Rossiya-Turkiya urushi muammolari imkon bermadi.

1878-yili Sheralixon ingliz missiyasini Kobul shahrida qabul qilishdan bosh tortdi. Angliyaga bu Afg'onistonga qarshi bosqinchilik urushi ochishga bahona bo'ldi. 1878-yil 20- noyabrda Afg'onistonga qarshi urush harakatlari boshlandi. Sheralixon vafot etgach (1879-yil fevral) taxtga o'g'li Yoqubxon o'tirdi. U inglizlar yordamida hokimiyatni saqlashga harakat qildi. Shu maqsadda inglizlar bilan 1879-yil may oyida Gandamak degan joy da bitim tuzildi. Afg'oniston amalda mustaqilligini yo'qotdi. Kobulda ingliz rezidensiyasi ochildi. Uning vazifasi afg'on

amiri xatti-harakatlari hamda Angliyadan yuboriladigan qarzar qanday sarflanayotgani ustidan nazorat qilish edi. Amir Yoqubxonning taslimchilik siyosati mamlakatda keskin qarshilikka uchradi. 1879-yil avgust oyida Kobulda qo'zg'olon ko'tarildi. Shaharliklar ingliz rezidensiyasiga bostirib kirib, uni egalladilar. Inglizlar Gandamak bitimidan keyin qaytarib olib ketgan qo'shinlarini yana Afg'onistonga tashladi. Inglizlar katta kuch bilan Kobulni qayta egalladilar.

Bu orada Afg'onistonning sobiq amiri M. Afzalxonning o'g'li Abdurahmon qo'zg'olonchi qo'shini bilan Kobulni o'rab oldi. Inglizlar tang ahvolda qoldilar. 1880-yilning boshida Abdurahmon Shimoliy Afg'onistonda o'z hokimiyatini o'rnatdi.

Inglizlar Abdurahmon bilan muzokaralar boshlashga majbur bo'ldilar. Abdurahmonga Kobul topshirildi. Qandahor Angliya ta'sir doirasida qoldi. Bularning evaziga Afg'oniston Angliya hamda ingliz Hindistonidan boshqa biror chet el mamlakati bilan diplomatik aloqa qilmaslik majburiyatini oldi. Abdurahmon faqat ichki siyosatdagina nisbatan mustaqillikni saqlab qolishga erishdi.

Afg'oniston taxtining qonuniy vorisi amir Sheralixonning o'g'li Ayubxon Qandahorga yurish boshladi. 1880-yil 27- iyul kuni May-band qishlog'i yonida jang bo'ldi. Ingliz harbiy brigadasi yanchib tashlandi. Inglizlar yangi harbiy qismlar chaqirishga majbur bo'ldi. Bu yangi kuchlar Ayubxonni Hirotga chekinishga majbur etdi. Lekin, aholining qattiq qarshiligi tufayli inglizlar Qandahorni tashlab chiqib ketishga majbur bo'lishdi. Shunday qilib, ikkinchi ingliz-afg'on urushi Angliyaning mag'lubiyati bilan tugadi. Tez orada endi taxt da'vogarlari o'rtasida urush harakatlari boshlanib ketdi. 1880-yili Abdurahmon Ayubxon qo'shinlarini qattiq talafotga uchratdi. Ayubxon chet elga qochishga majbur bo'ldi. Afg'onistonda Abdurahmonning to'liq hokimiyati o'rnatildi. Amir Abdurahmon (1880-1901-yillar) davrida Afg'oniston qiyin iqtisodiy-ijtimoiy ahvolni boshidan kechirdi. Inglizlar bilan urushlar ishlab chiqarishni izdan chiqardi. Kobul va boshqa shaharlar vayron qilingan edi. Afg'on amiri mamlakatda «yopiq» siyosat olib bordi. Chet elliklar, ayniqsa yevropaliklarning bu mamlakatga kirishi taqiqlangan edi. Amir mamlakatni siyosiy jihatdan birlashtirish uchun kurash olib bordi. Ma'muriy politsiya apparati (boshqarmasi) tuzildi. Uning harakati bilan xazinaga soliqlar tushishi birmuncha yaxshilandi. Karvon yo'llari xavfsizligi bir qadar ta'minlandi. Qaroqchilar shafqatsiz jazolanadigan bo'ldi. Ular temir qafaslarga solinib, yo'l yoqasidagi ustunlarga osib qo'yilar, ochlik hamda tashnalikda o'limga mahkum qilinar edi. Diniy ulamolarni o'z tarafida tutish uchun Abdurahmon ularga maosh belgiladi. Vaqf mulkini esa qisman davlatga o'tkazdi.

Yagona pul birligi, mamlakat uchun bir xil tosh-tarozi va uzunlik o'lchovlari joriy qilindi. Bu tadbirlar tufayli Afg'onistonda savdo-sotiq, ishlab chiqarish va hunarmandchilik bir qadar rivojlandi.

Afg'onistonning XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi xalqaro ahvoli to'la ma'noda Rossiya va Angliyaning o'zaro munosabatlariga bog'liq edi. Amir Abdurahmon bu murakkab sharoitda ikki ulkan mustamlakachi davlat kelishmovchiliklaridan ustalik bilan foydalandi. Natijada, Abdurahmon o'zining siyosiy mavqeyini mustahkamladi. Mamlakat hududini shimolda Amudaryogacha kengaytirib oldi. 1887-yilda turkmanlar yashaydigan joylarda afg'on-rus chegaralari qat'iy belgilab olindi. Shundan keyin, Abdurahmon janubda - Hind daryosi bo'ylarida yashaydigan, lekin 1849-yilda inglizlarga bo'ysundirilgan afg'on qabilalarini o'z davlati atrofida birlashtirish harakatini boshlab yubordi. Amir Abdurahmon o'zini ularga «diniy homiy» qilib ko'rsatdi va inglizlarga qarshi jihodga chorladi. Bu esa Angliya bilan urush xavfini tug'dirdi. Bundan cho'chigan Abdurahmon inglizlar bilan 1893-yilda bitim tuzishga majbur bo'ldi. Unga ko'ra, Afg'oniston janubidagi afg'on qabilalari hududlari inglizlar qaramog'ida qolaveradigan bo'ldi. Inglizlar kelishilgan chiziqqa (muzokara olib borgan inglizlar vakili Dyurand nomi bilan atalgan - Dyurand chizig'i) qo'shin yubordilar. Bunga javoban tog'lik afg'onlar qo'zg'olon ko'tardilar.

1901-yili Abdurahmon vafot etdi. O'rniga o'g'li Habi-bullo amir bo'ldi. U otasi yo'lidan borib afg'on qabila-larini birlashtirish siyosatini olib bordi. Inglizlarga qarshi kurashni davom ettirdi. Rossiya bilan savdo aloqalarini o'rnatishga urindi. Lekin, 1904-yili Angliya Kobulga Den missiyasini yuborib, Afg'onistonga bitim taklif qilindi. Unda tashqi savdo Angliya nazora-tida bo'lmog'i, mamlakatda inglizlarning temiryo'l qurishiga rozilik berish, ingliz fuqarolarining Afg'onistonga erkin kirib-chiqishiga ruxsat berish talab qilingan edi. 1907-yili shu masalalarda bitim imzolandi. Unga ko'ra, Afg'oniston Angliya manfaatlari mintaqasi deb e'lon qilindi. Rossiya uchun esa savdo huquqlari berildi, xolos. Afg'oniston XX asr boshida ishlab chiqarish sanoati yo'q qoloq davlat bo'lib qolaverdi. Soliqlar pul bilan emas, mahsulot sifatida olinardi.

Og'ir sharoitga qaramay, Afg'oniston tashqi dunyodan uzilib qolgani yo'q. Afg'onistonda ham respublikachilik harakati paydo bo'ldi. Bu harakat tarafdorlari «Yosh afg'onlar» deb ataldi. Ular maktab-maorif, madaniyat, fan, texnika tarmoqlarini rivojlantirish g'oyalarini ilgari surdilar. Ular amirlik hokimiyati bilan barobar konstitutsiya ham bo'lishini talab qildilar. Mahsulot solig'ini bekor qilish, ichki boj to'lovlarini yo'qotish, qa-bilalar tengligiga erishish va ko'p masalalarda ilg'or qarashlarni ifoda etdilar. «Yosh afg'onlar» harakatiga «Siroj ul-axbori

afg'oniya» («Afg'on xabarlar chirog'i» gazetasi) muharriri Muhammad Tarziy rahbarlik qildi. U Habibulloxonning uchinchi o'g'li Omonulloxonning qaynatasi edi. Islohotchilarning butun umidi shu Omonulloxonga qaratildi. Chunki, u «yosh afg'onlar» ruhida tarbiyalangan edi.

XV asr oxirida Eron markaziy hokimiyatga bo'ysunmaydigan birqancha mustaqil hududlarga bo'linib ketgan edi. Buning oqibatida o'zaro ichki urushlar tobora avj oldi. Bu esa mamlakat taraqqiyotiga katta salbiy ta'sir ko'rsata boshladi. Oqibatda mamlakat zaiflashdi. Eronning bu zaiflashuvi Turkiya bosqini xavfini tobora kuchaytira bordi. Bu ikki omil Eronni yagona davlatga birlashtirishni hayotiy zaruratga aylantirib qo'ydi. Bu tarixiy vazifa safaviylar sulolasi tomonidan uddalandi.

Safaviylar avlodi Ismoil I Safaviy 1500-1501- yillarda olib borgan urushlari natijasida katta-katta hududlarni egalladi. U 1502- yilda Tabriz shahrini ishg'ol etgach, o'zini shohanshoh deb e'lon qildi (1502-1524). Shu tariqa tarixga «Safaviylar davlati» nomi bilan kirgan davlat vujudga keldi. Bu davlat tarkibiga Erondan tashqari Ozarbayjon, Armanistonning bir qismi, Afg'oniston, Iroq Arabistoni va boshqa hududlar kirgan. Tabriz shahri poytaxt etib belgilandi.

Ismoil I Safaviy markazlashgan davlat tuzibgina qolmay, uni o'z davrining qudratli davlatlaridan biriga ham aylantira oldi. Ismoil I Safaviy markaziy hokimiyatni mustahkamlash maqsadida yer egaligining suyurg'ol shaklini deyarli butunlay bekor qildi. Uning o'rniga tiyulni joriy etdi. Biroq bu tadbir yirik yer-mulk egalarining markazga bo'ysunmaslikka intilishlarini to'xtata olmagan. Safaviy hukmdorlar tinimsiz bosqinchilik urushlari olib borganlar. Shohlik tarkibiga kiruvchi qaram o'lkalar xalqlarining ozodlik kurashini shafqatsizlik bilan bostirganlar.

Abbos I davrida (1587-1629) safaviylar davlati o'z qudratining cho'qqisiga erishdi. U bunga Eronga qaram bo'lgan chekka o'lkalardagi eng yirik yer-mulk egalarining mustaqilligini tugatish hisobiga erishdi. Bu yer-mulk egalari bir vaqtlar safaviylarga katta yordam bergan, buning evaziga keyingi shohlar davrida ularning oliy hokimiyati ostida amalda mustaqil bo'lgan juda katta-katta hududlarga egalik qilib kelishardi. Ular amalda bu mustaqil hududlarning xonlari edi. Abbas I mamlakat poytaxtini Tabriz shahridan (Ozarbayjon) Isfahon (Eron)ga ko'chirdi. Mamlakat soliq tizimida tartib o'rnatildi va soliqlar miqdori kamaytirildi. Savdo-sotiq va hunarmandchilikni rivojlantirishga alohida e'tibor berdi. Yangi-yangi karvonsaroylar va savdo yo'llari qurildi. Savdo karvonlari qaroqchilariga qarshi

shafqatsiz kurashdi. Rossiya, Turkiya, Angliya, Niderlandiya, Fransiya va Venetsiya bilan keng ko'lamli savdo-sotiq yo'lga qo'yildi. Bu esa Eronning ichki va tashqi savdosi o'sishiga olib keldi. Yangi-yangi sug'orish inshootlari ham bunyod etildi. Natijada katta-katta maydonlarga suv chiqarib hosil olishga imkon tug'ildi.

Abbos I bundan tashqari o'z qo'shinini har tomonlama mustahkamlashga ham alohida e'tibor berdi. U muntazam qo'shin barpo etdi. Angliya harbiy mutaxassisleri yordamida qo'shinda o'q otuvchi qurol va to'p joriy etdi. Bu islohot tezda o'z samarasini ko'rsatdi. Chunonchi, 1602- yilda boshiangan Eron - Turkiya urushida Eron g'alaba qozondi. Oqibatda Eron Kavkaz ortida mustahkamlanib oldi. Tez orada Angliya yordamida Portugaliyani Fors ko'rfazidagi Ormuz orolidan quvib chiqarishga erishdi. Bu orol Eron uchun Yevropaga ipak eksport qilishda zarur edi. To'g'ri, Angliya bekorga yordam bermagan, albatta. Ko'rsatilgan bu yordam evaziga Angliyaning «Ost-Indiya» kompaniyasi Eron bilan savdo ishlarida katta imtiyozlarga ega bo'lib oldi.

XVIII asrdan boshlab Safaviylar davlatida iqtisodiy tushkunlik boshlandi. Buning asosiy sababi, yer egaligi tiyul shakli miqdorining ko'payib borganligi oqibatida davlatga qarashli yer miqdorining kamayishi edi. Bu hoi davlat xazinasiga tushadigan daromadning kamayishiga olib kelgan. Buning oldini olish uchun keyingi hukmdorlar dehqonlar to'laydigan soliq miqdorini oshirganlar. Bu esa, o'z navbatida, dehqon xo'jaliklarini xonavayron qilib, savdogarlar va hunarmandlar ahvolini ham yomonlashtirgan. Buning ustiga, jon solig'i ((jizya) miqdori ham oshirilgan. Natijada dehqonlar uchun ijaraga olib tirikchilik qilishdan manfaat qolmagan. Endi ularning tirikchilik ilinjida boshqa joylarga ketishdan boshqa ilojlari yo'q edi. Biroq shoh Sulton Husayn bunga yo'l qo'ymaslik uchun 1710-yilda dehqonlarning yerni tashlab ketishlarini taqiqlovchi farmon chiqargan. Dehqon xo'jaligining xonavayron bo'lishi ichki savdoning keskin kamayishiga olib keldi. Buning ustiga, yevropaliklarning Hindistonga boruvchi dengiz savdo yo'lidan tobora ko'proq foydalanishi Eronning tashqi va vositachilik savdosiga katta zarar keltirdi.

Iqtisodiy tushkunlik, o'z navbatida, siyosiy tushkunlikni ham keltirib chiqardi. Ya'ni, aholi turli tabaqalari orasida Safaviylardan norozilik kuchayib bordi. Yirik yer-mulk egalarining markaziy hokimiyatga bo'ysunmaslik harakati va bosib olingan o'lka xalqlarining ozodlik uchun kurashi kuchaydi.

Ulardan biri afg'onlarning 1709- yilda ko'targan qo'zg'oloni bo'ldi. 1722-yilda afg'onlar Mir Mahmud boshchiligida nurab qolgan Eronga hujum qildi. Eron shohi Sulton Husayn hokimiyatni Mir Mahmudga topshirishgamajbur bo'ldi. Shu tariqa Eron tarixida afg'on istilosi davri boshlandi.

Bu davrda Safaviylar sulolasi hukmronligi nomiga bo'lsa-da, hamon davom etardi. So'nggi hukmdor Taxmasp II amalda hech qanday hokimiyatga ega emas edi. Buning ustiga, unda xalqni turk va afg'on bosqinchilariga qarshi kurashga ko'tara oladigan qobiliyat ham bo'lmagan. Shunday sharoitda afshor qabilasining yetakchisi shijoatkor, katta lashkarboshchilik qobiliyatiga ega Nodir kurash maydoniga chiqdi. U 1730- yilda afg'on qo'shi-nini butunlay tor-mor etib, Eronni afg'on bosqinidan ozod etdi. 1736-yilga qadar Nodir Safaviylar davlatining tarkibiga kiruvchi barcha hududlarda o'z hokimiyatini o'rnatdi. Nihoyat, 1736-yilda barcha qabilalar aslzodalarining qurultoyida o'zini Eron shohi deb e'lon qilishga erishdi. Shu tariqa Safaviylar sulolasi hukmronligi butunlay barham topdi.

Nodirshoh katta bosqinchilik urushlari natijasida ulkan imperiya tuzdi. Biroq uning hukmronligi uzoq davom etmadi. 1747- yilda o'zaro ichki nizolar natijasida Nodirshoh o'ldirildi. Nodirshoh halokatidan keyin imperiya bir necha qismlarga bo'linib ketdi. Eronda turli qabilalar o'rtasida toju taxt uchun kurash avj oldi. Bu kurashda asosiy rolni zend va xojar qabilalari o'ynadi. Ular o'rtasidagi toju taxt kurashi 1758-yilda zend qabilasi g'alabasi bilan tugadi. Oradan ko'p o'tmay qabila boshlig'i Karimxon Zandning hokimiyati deyarli butun Eronda yoyildi (1758-1779).

Karimxonning vafotidan so'ng toju taxt uchun kurash yana avj oldi. Bu kurashda endi zendlarning asosiy raqibi bo'lgan xojarlar g'alaba qozondi. Bu qabila rahnamosi Og'a Muhammadxon 1796-yilda o'zini Eron shohi deb e'lon qildi. Shu tariqa Eronda yangi sulola -Xojarlar sulolasi hukmronligi o'rnatildi. Shoh mamlakat poytaxtini Tehran shahriga ko'chirdi. Yangi sulola Eronda 1925-yilgacha (129 yil) hukmronlik qildi.

Eron XIX asrda ham mutlaq monarxiya edi. Davlat boshlig'i shoh bo'lib, u cheklanmagan huquqqa ega bo'lgan. Butun hokimiyat uning qo'lida to'plangan. Shoh huzurida maxfiy kengash tuzilgan bo'lib, uning tarkibiga sadr-a'zam, amin ad-davla, vazir, hakimboshi va shayx ul-islom kirgan. Davlat viloyatlarga bo'lingan, ularni beklarbegi boshqargan. Taxt vorisiga Ozarbayjon ham berilgan bo'lib, uning qarorgohi Tabriz shahrida joylashgan edi.

XIX asr boshlarida Eron xalqaro siyosatda muhim o'rin tuta boshladi. Bunga Buyuk Britaniya va Fransiyaning Sharqda hukmronlikni o'z qo'llariga olish uchun boshlagan kurashlari hamda Rossiyaning Kavkazni qo'lga kiritishga intilayotganligi sabab bo'ldi.

Buyuk Britaniya va Fransiya Rossiyaning Kavkazda mustahkamlanib olishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida bu o'lkada katta hududlarni bosib olgan Eronni qo'llab-quvvatlay boshladilar. Biroq bu hol Rossiyaning Kavkazga nisbatan siyosatini

o'zgartira olmasdan, Rossiya Eron bilan urushda birin-ketin g'alaba qozonib, o'zi uchun qulay shartnomalar tuzilishiga erishgan.

Chunonchi, 1813-yil bu ikki davlat o'rtasida imzolangan shartnoma Rossiyaga Kavkazda yanada mustahkamlanib olishga imkon berdi. 1826-yilda bo'lib o'tgan Eron-Rossiya urushida Eron yana yengildi. Ikki davlat o'rtasida imzolangan *Turkmanchoy* shartnomasiga ko'ra, Rossiyaning Kavkazdagi mavqei yanada mustahkamlandi. Eron esa Kavkazorti hududlarida bo'lgan da'vosidan voz kechdi. Rossiya bilan urushdagi mag'lubiyat va uning oqibatlari Eron hukmron tabaqalari o'rtasida keskin norozilik keltirib chiqardi. Oqibatda Eronning qator viloyatlarida yirik yer-mulk egalari boshchiligida shohga qarshi isyon ko'tarildi. Buyuk Britaniya Eronning og'irahvolidan foydalanib, 1841-yil Eronni noteng shartnomani imzolashga majbur etdi. Unga ko'ra, Buyuk Britaniya Eron bilan savdo-sotiq ishlarida katta imtiyozlarga ega bo'lib oldi. Oqibatda, u Eron bozorlarini o'z yengil sanoat mahsulotlari bilan to'ldirib tashladi. Bu esa, o'z navbatida, mahalliy dehqonlarni, hunarmand va savdogarlarni xonavayron qildi. Shu tariqa Eron yirik mustamlakachi davlatlardan biri - Buyuk Britaniyaning sanoat mahsulotlari sotiladigan bozoriga aylanib qoldi. Bu o'z navbatida mamlakatda pulga bo'lgan ehtiyojni oshirib yubordi. Natijada davlat apparatidagi mansablarni sotish va sotib olish nihoyatda kuchaydi. Viloyat hukmdorlari, katta-katta yer-mulk egalari davlat xazinasiga soliq to'lamay qo'ydi. Bu omillar mamlakat mehnat-kash qatlamlari orasida keskin norozilik kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Bu esa, o'z navbatida, Eronda bobiylar qo'zg'olonini keltirib chiqardi. Qo'zg'olon shoh tuzumiga, zulmiga va yer egaligiga qarshi qaratilgan edi. Qo'zg'olon ishtirokchilari, asosan, hunarmandlar, mayda savdogarlar, shahar kambag'allari va shahar atrofi'da yashovchi dehqonlar edi. Qo'zg'olonga quyi tabaqadagi ruhoniylar va bobiylar tarafdorlari bo'lgan savdogarlar boshchilik qilgan.

Qo'zg'olon 1848-yil boshlandi. Bu qo'zg'olon tarixga bobiylar qo'zg'oloni nomi bilan kirgan. Chunki qo'zg'olonchilar bobiylar ta'limoti tarafdorlari bo'lgan. Bu ta'limotning asoschisi Sayid Ali Muhammad bo'lib, o'ziga Bob taxallusini qabul qilgan edi. Bobiylar atamasi shu taxallusdan kelib chiqqan.

Qo'shimcha ma'lumot

Sayid Ali Muhammad 1819-yil Sheroz shahrida tug'ilgan bo'lib, shu shaharda yashovchi mayda savdogarning o'g'li edi. 1844-yil o'zini Bob, (arabcha -

eshik, darvoza) ya'ni, «haqiqat va adolat yo'liga olib boruvchi eshik», deb atay boshlaydi.

Bobiylar ta'limoti asosida ilohiy xaloskor (mahdiy)ning kelishi yaqinlashganligi g'oyasi yotadi. Shu tufayli Bob mahdiyning xohish-irodasi, ko'rsatmalari, yo'l-yo'riqlari xalqqa men orqali boradi, deb targ'ib qilgan. U «Bayon» nomli kitob yozgan. Kitobda bobiylar harakatining asoslari yoritib berilgan. Bob kitobida o'zini Muhammad (s.a.v.) o'rniga kelgan payg'ambar deb, «Bayon» kitobini esa Qur'oni karim o'rnini bosuvchi kitob deb e'lon qilgan.

Bobiylar shaxsni himoya qilish, kambag'allardan olinadigan soliqlarni bekor qilish, yirik yer egaligini tugatish, barcha mol-mulklarni odamlarga teng taqsimlash kabilarni talab qilganlar. Ayni paytda ular mavjud dinni bekor qilish va davlat tuzumini ag'darib tashlash tarafdorlari bo'lganlar.

Bobiylar qo'zg'oloni 1850- yilning o'rtalarigacha davom etdi. Oxir-oqibatda, shoh qo'shini qo'zg'olonni bostirishga muvaffaq bo'ldi. Sayid Ali Muhammad esa qatl etildi.

Xo'sh, bobiylar qo'zg'oloni nega mag'lubiyatga uchradi? Uning asosiy sababi shuki, bobiylar ta'limotining islom dini asoslariga zidligi edi.

Bundan tashqari, qo'zg'olon puxta uyushtirilmagan, tarqoq holda olib borildi. Shuningdek, qo'zg'olon aholining asosiy qismini tashkil etuvchi dehqonlarning kattaqismi tomonidan qo'llab-quvvatlanmadi. Qolaversa, qo'zg'olonchilar qat'iy harakat qilmadilar. Ular ko'p hollarda bosib olgan shahar yoki qal'alar bilan cheklanib qoldilar hamda shoh qo'shinining hujumini kutib turish taktikasini qo'lladilar.

Buyuk Britaniya Eronning kuchsizlanib qolganligidan foydalanishga qaror qildi. O'rta Osiyodagi bosqinchilik maqsadlarida Hirot shahrining katta ahamiyatga ega ekanligini unutmagan Buyuk Britaniya 1853-yil Eronni rasman Hirotga da' vosidan voz kechishga majbur etdi. Biroq 1856-yil Eron Hirot shahrini bosib oldi. Eronning Hirotni bosib olganligiga javoban Buyuk Britaniya Eronga urush e'lon qildi. Ikki davlat o'rtasida boshlangan harbiy harakatda Eron mag'lubiyatga uchradi.

1857-yil Buyuk Britaniya va Eron o'rtasida Parij Tinchlik shartnomasi imzolandi. Shartnomaga ko'ra, Eron Hirotga va Afg'onistonning boshqa hududlariga bo'lgan da'vosidan butunlay voz kechdi. Eron-Afg'oniston o'rtasida nizo kelib chiqqudek bo'lsa, bu nizo Buyuk Britaniya vositachiligida hal etiladigan bo'ldi. Parij Tinchlik shartnomasi Buyuk Britaniyaning Erondagi ta'siri sezilarli darajada o'sishiga xizmat qildi.

XVI asrda Hindistonda siyosiy tarqoqlik hukm surardi. O'zaro ichki nizolar va urushlar mamlakatni kuchsizlantirgan edi. Hindistondagi ichki siyosiy ahvolni sinchkovlik bilan kuzatib turgan Kobul hukmdori Zahiriddin Muhammad Bobur vaziyatdan foydalanishga qaror qildi va Hindistonni egallash uchun harbiy yurish boshladi. Bu davrda Shimoliy Hindistondagi Dehli sultonligida Lodiylar sulolasi hukmronlik qilardi. Bobur Mirzoning Hindistonga qarshi harbiy yurishi 1525-yil oxirida boshlandi. 1526-yil 21-aprelida Panipat jangida Ibrohim Lo'diy qo'shinini tor-mor keltirdi. 27-aprel kuni esa Dehli shahrida Bobur podshoh nomiga xutba o'qildi. Shu tariqa tarixda 332 yil yashagan yangi imperiya - Boburiylar imperiyasiga asos solindi. Bobur Hindistonda o'zi bilan qolgan qo'shinga **jogir** tarqatdi. Bu yerlarda xo'jalik yuritish ishlariga rahbarlik qilish mahalliy urf-odatlarini yaxshi biladigan hindlarga topshirildi. Bobur podshoh imperiya taxtida 3 yil o'tirdi. 1530-yil o'limidah avval imperiya hududlarini o'g'illariga bo'lib berdi. Imperiya taxti katta o'g'li Humoyunga nasib etdi. Panjob, Kobul va Qandahorga ega bo'lgan qolgan 3 o'g'lga akalari Humoyunga bo'ysunishni vasiyat qildi.

Humoyun imperiya sarhadlarini yanada kengaytirishga intildi. Bu kurashda uning asosiy raqibi Bixor va Bengaliyada joylashib olgan afg'on qabilalarining yetakchisi Sherxon Sur bo'ldi. Ikki sarkarda qo'shinlari o'rtasidagi jangda Sherxonurning qo'li baland keldi. Mag'lubiyatga uchragan Humoyun Eronga qochib ketdi. Sherxon Sur Hindiston taxtini egalladi va shoh deb e'lon qilindi. Bu hodisa 1540-yil yuz berdi. Sherxon Sur va uning o'g'illari 1554-yilgacha hukmronlikni saqlab turdilar. Biroq bu davr shiddatli va shafqatsiz ichki kurashlar bilan o'tdi. Oqibatda Hindistonda og'ir siyosiy vaziyat vujudga keldi. Bundan Humoyun ustalik bilan foydalandi. Taxtdan ayrilgan yillarda u turk, fors, turkman va o'zbeklardan iborat kuchli qo'shin tuza olgan edi. 1555-yilda Humoyun Hindiston taxtining da'vogarlarini tor-mor etib, yana hokimiyatni o'z qo'lga qaytarib oldi. Unga taxtda uzoq o'tirish nasib etmadi. Oradan ko'p vaqt o'tmay Humoyun tasodifiy falokat tufayli halok bo'ldi.

Boburiylar sulolasi hukmdorlari ichida «Buyuk Akbar» degan unvonga sazovor bo'lgan Humoyunning o'g'li Akbarshoh (1542-1605) 1556-yil otasi taxtini egalladi.

Akbarshoh hamisha uzoqni ko'zlab siyosat yuritdi. Shu tufayli u Hindistonda o'z hukmronligini to'la va uzil-kesil o'rnatdi. Shuning uchun ham uni Hindistondagi Boburiy hukmdorlar ichida eng ulug'i -«Buyuk Akbar» deb atashgan. Akbar Hindiston tarixidagina emas, balki jahon tarixida ham eng buyuk shohdir. Agar yevropalik hukmdorlar bilan taqqoslanadigan bo'lsa, Akbar ulug'vorlikka ham, omadbarorlikda ham ulardan ustun turadi.

Akbarshoh bunday buyuklikka osonlikeha crishgan emas. Uning asosiy raqibi Hindistondagi afg'on qabilalari yetakchilari edi. Akbarshoh qo'shini 1556-yilda afg'on qabilalari qo'shinini tor-mor etdi. 1559-yil kelib taxt uchun boburiylarga qarshi kurashning yetakchi kuchlari - afg'onlarning Sur sulolasi butunlay yanchib tashlandi. Akbarshohning hukmronlik yillari imperiyaning oltin davri bo'lgan.

Akbarshoh zukko davlat arbobi, mohir sarkarda bo'lishi bilan bir qatorda, itoatkor o'g'il. g'amxo'rota ham edi. Qo'l ostidagi xalqlarning tunnush farovonligi doimo uning e'tiborida turgan. Kambag'al, beva-bechoralarga muntazam moddiy yordam ko'rsalgan, Akbarshoh falsafa, din, adabiyot va tarix ilmini yaxshi egallagan. U boshqa din vakillariga nisbatan ham adolatli siyosat yuritgan. Hindlarning ziyoratgohlaridan olinadigan soliqni man etgan. Imperiya hududida yagona savdo solig'i joriy etilgan. Ham xolisa, ham jogirdorlar yerlaridan teng miqdorda soliq undirilgan. Davlat idoralaridagi lavozinilar, dini va mazhabidan qat'i nazar, shaxsning salohiyatiga qarab taqsimlangan. Akbarshoh musulmon bo'lmaganlardan undiriladigan "jizya" solig'ini bekor qilgan. Akbarshoh barcha fuqarolarga e'tiqod erkinligini bergan. Bir so'z bilan aytganda, Akbarshoh hindlar bilan musulmonlarning yonma-yon, tinch-totuv yashashlariga erishgan. Akbarshoh yuritgan bunday adolatli siyosat boburiylar davlatining ulkan imperiyaga aylanishida, uning mahalliy aholi va amaldorlar tomonidan qo'llab-quvvatlanishida katta rol o'ynadi. Bu esa, o'z navbatida, imperiyaning qudrati va shon-shuhratining yanada ortishiga xizmat qilgan.

Akbarshoh Hindistonda yuritgan adoiatli siyosati evaziga «Milliy podshoh». «Xalq hukmdori» nomlariga ham sazovor bo'lgan. Biroq XVII asr II yarmidan boshlab imperiyada toju taxi uchun kurash avj oidi. Oxir-oqibatda, bu kurashda 1627-1658-yillarda hukmronlik qilgan Shoh Jahon (Akbarshohning nabirasi)ning o'g'i Avrangzeb g'alaba qozondi. U 1658-yilda Dehli shahrini egalladi va o'zini shoh deb e'lon qildi. Avrangzeb hukmronligi davrida (1658-1707) imperiya hududi yanada kengaydi. O'z qudratining cho'qqisiga erishdi. Biroq ayni Avrangzeb hukmronligi yillarida imperiya inqirozi uchun zamin ham yetila bordi. Xo'sh, bu nimalardan iborat edi? Avvalo. Avrangzebning hech kimga ishonmasligi, hamma narsaga shubha bilan qarashi davlati arkon hamda mahalliy hind hukmdorlarining undan ko'nglini sovitdi.

Ikkinchidan, Avrangzeb xurofotchi va jaholatparast edi. U o'zini faqat mamlakatni idora qilish uchungina emas, balki islom dinini himoya qilish va uning yoyilishi ko'lamini yanada kengaytirish uchun ham taxtga chiqqan hukmdor deb hisoblardi. Shu tufayli musulmon bo'lmagan fuqarolarni islom diniga o'tkazish uchun hech

narsadan qaytmadi. Bunday siyosat oqibatida mamlakatning musulmon bo'lmagan aholisi uning ilohkor fuqarosiga emas, balki g'azablangan raqibiga aylandi.

1679-yildan hindlar qaytadan «jizya» solig'ini to'lashga majbur etildi. Hatto hindlarning muqaddas ziyoratgohlarga boruvchilaridan ham soliq olinadigan bo'ldi. Musulmon savdogarlari soliqdan ozod qilingani holda, hind savdogarlariga tovarning 5 % i miqdorida soliq joriy etildi. Soliq yig'uvchi idoralardagi mansabdor hindlar asta-sekinlik bilan lavozimlaridan bo'shatila boshlandi. Avrangzebning bu siyosati oxir-oqibatda Boburiylar imperiyasining chok-chokidan so'kilib ketishiga olib keldi. Shunday sharoitda Hindistonga yevropaliklarning kirib kelishi kuchaydi. Yevropa imperiya davlatlari hukmron doiralarining maqsadi, Hindistonning bitmas-tuganmas boyliklariga, unumdor yerlariga ega bo'lish edi. Yevropa davlatlari hukumatlari endilikda o'z maqsadlarini ro'yobga chiqarishga kirishishdi. Chunonchi, 1757-yilda ingliz qo'shini Bengaliyani bosib oldi. Bu boy hudud inglizlarning keyingi bosqinchilik rejalarini amalga oshirishda tayanch vazifasini o'tadi. Shu tariqa Angliyaning Hindistonni asta-sekin o'z musulmakasiga aylantirish davri boshlandi.

Hindiston bu davrda Angliya mustamlakasi edi. Metropoliya Hindistonni vitse-qirol boshchiligidagi amaldorlar va politsiya apparati yordamida boshqarar edi. Ingliz mustamlakachiligi sharoitida Hindistonda sarmoyadorlikka asoslangan mahalliy ishlab chiqarish tizimi yuzaga kela boshladi. Yirik sanoat korxonalari qurishga kirishildi. 1886-yilda to'qimachilik sanoatida 95 ta fabrika bor edi. Konlar soni 1880-1900- yil Uarda 286 taga yetdi. Temiryo'l tarmoqlari 1900-yilda salkam 40.000 km ni tashkil qildi. Bu xomashyo tayyorlash va tashishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Angliya Hindistonda sanoatni o'ziga qulay qilib joylashtirishga harakat qildi. Asosiy sanoat korxonalari dengizbo'yi port shaharlari yaqinida edi. Bundan Hindiston boyliklarini arzon va oson olib chiqib ketish maqsadi ko'zlandi. 1873-yildan 1883-yilgacha Hindiston bilan Angliya savdosi 60 foizga o'sdi. Hindiston ingliz burjuaziyasining kapital kiritish zonasiga aylanib qoldi. Sanoatga bir yoqlama zo'r berish qishloq xo'jaligini qiyin ahvolga solib qo'ydi. Dehqonchilikda agrotexnika madaniyati pastligicha qoldi. Mustamlakachilar tomonidan ochilgan sug'orish insho'tlari bor-yo'g'i 20 foiz yerni sug'orishga yetar edi. 60-70 foiz yer hosilni katta qismini to'lash sharti bilan dehqonlarga ijaraga berilardi. Qarz hisobiga ishlab berishga majbur odamlar toifasi tobora ko'paya bordi. Qishloq xo'jaligining eng serdaromad tarmoqlariga (choy, kanop, paxta) sarmoya solish katta foyda keltirar edi. Bu sohada ingliz ishbilarmonlari ishchilar yollar va ular qul deb atalar edi.

Hindiston XIX asr oxirida dunyo bozoriga katta miqdorda sanoat va qishloq xo'jaligi mollari chiqara boshladi. Lekin olingan daromad ingliz mustamlakachilarini boyitdi. Qishloq xo'jaligida monokultura vujudga keldi. iBengaliya kanop, Assam choy, Bombay va Markaziy Hindiston paxta, Panjob bug'doy yetishtirishga ixtisoslashdi. Zamindorlar, bank egalari, sudxo'rlar dehqonlarni qarzga botirib, ularni ayanehli ahvolga solib qo'ydilar. 1870-1890-yillar davomida Hindistonda 20 martadan ko'p ocharchilik yuz berdi. Natijada 18 mln. odam qirilib Iketdi.

1871-yil 17-yanvarda Angliya qirolichasi Hindiston qirolichasi deb e'lon qilindi. 1877-yilda Dehlida qirolicha Viktoriyani Hindiston qirolichasi qilib ko'tarish marosimi bo'lib o'tdi. Hindistonning turli burchaklaridan kelgan knyazlar Viktoriyaga sodiqlik haqida qasamyod qildilar. Mamlakat hududining 1/3 qismi inglizlarga tobe bo'lgan knyazlar qo'lida edi. 1878-yilda ingliz ma'muriyati (endi vitse-qirolik deb atalardi) Hindistondagi milliy tillarda chiqadigan matbuot haqida qonun qabul qildi. Qonun barcha gazetalarni inglizlar nazoratiga o'tkazdi. Oradan bir yil o'tgach, o'qotar qurollarni saqlamaslik haqida akt qabul qilindi. Angliya shu bilan bir vaqtda o'zlarini mahalliy burjuaziyaga «yon berganday» qilib ko'rsatishga harakat qildi. Shahar ma'muriyatiga boy hindlar saylansa-da, amalda hokimiyat shahar boshlig'i-ingliz qo'lida edi. Hindiston faqat Angliya orqali savdo qilishga majbur etilgan edi. XX asr boshlarida Hindistonda kapitalizm sekinlik bilan bo'lsa-da, rivojlana boshladi. 1910-yilga kelib kanop-tola fabrikalari soni ikki barobar ko'paydi. Paxta xomashyosi tayyorlash, surp mato to'qish korxonalarining 215 tasi hind kapitalistlariga qarashli edi. Sanoat ishchilari soni salkam 1 mln. kishiga yetdi. Angliya barcha ko'mir havzalari, kanop sanoati, choyzor-larni, transport, savdo va sug'urta jamiyatlarini o'z qo'lga to'plab oldi va butun Hindiston ishlab chiqarish tizimi ustidan nazorat o'rnatdi. Bu yerda Angliya kapitali juda tez o'sib bordi. 1893-1907-yillarda temiryo'llar bo'yicha ingliz kapitali 56 foizga, xususi kompaniyalarda 23, banklarda 95 foizgacha o'sdi. 1905-yilda Hindistonda 165 ta chet el aksionerlik kompaniyasi mavjud edi. Bu kompaniyalar mamlakatni taladi. Xalqning ahvoli og'irlashib bordi. 1896-1906-yillarda 10 mln. dan ortiq odam ochlikdan o'ldi. 1904-yilda 1 mln. odam vabodan qirildi. 1901-yili vitse-qiroli Kerzon «Kon qonunlari» nomli hujjat e'lon qildi. Unga ko'ra, 20 fut chuqurlikdan boshlab barcha yerosti boyliklari inglizlar nazoratida qazib olinadigan bo'ldi. Bu Hindiston milliy boyliklarini talash edi.

1905-yilgi Kerzon universitetlarga kirish pulini ikki barobarga oshirdi. Ulardagi huquq fakultetlari «yopib» qo'yildi. Demokratik ruhdagi, xalq manfaatini ko'zlovchi talabalarning universitetlarga kirishi butunlay taqiqlandi.

Hindiston xalqlari mustamlakachilik zulmiga qarshi ozodlik kurashi olib bordi. 1885-yil Broche viloyatida Lakx boshchiligida qo'zg'olon bo'lib o'tdi. Bu viloyatda inglizlar hukmronligiga barham berildi, Hindiston mustaqil podsholik deb e'lon qilindi. Biroq inglizlar kuch bilan qo'zg'olonni bostirdilar. Lakx va uning ikki safdoshi osib o'ldirildi. 1885-yilda Bombay shahrida muayyan dasturiga ega siyosiy partiya - «Hindiston Milliy Kongressi» (HMK) tuzildi. Ayni paytda, «Musulmonlar ligasi» ham tuzildi. Endi inglizlar hind-musulmon raqobatini yanada kuchaytirib yubordilar. Kongress o'fz safiga yirik savdo-sanoat kapitali vakillarini, liberal pomeshchiklar hamda milliy ziyolilarni birlashtirdi. Dastlabki vaqtlarda Hindiston Milliy Kongressiga ingliz mustamlaka ma'muriyati qarshilik qilmadi. Sunday munosabatni Angliyaning Hindistondagi vitse - qirol lord Dafferin «Milliy Kongress inqilobdan arzonroq» deb izohlagan edi.

Inglizlar o'ylagandek, Milliy Kongressning talablari dastlabki paytlarda juda ham mo'tadil boldi. Bu talablar Britaniya hukmronligini saqlab qolgan holda, ba'zi islohotlar o'tkazishnigina ko'zda tutardi. Ya'ni, chetdan keltiriladigan ip-gazlamalarga boj belgilash, mahalliy vakillik muassasalarining huquqini kengaytirish, hindlarni boshqarish ishlariga jalb etish, texnik ta'limni uyushtirish va boshqalar edi. Biroq vaqt o'tishi bilan bu partiya katta mavqega ega bo'la bordi. Ayni paytda, Kongressda turli oqimlar ham vujudga keldi. 1890-yilda «so'l» - radikal oqim shakllandi. Unga Bal Gangadxara Tilak (1856-1920) rahbarlik qildi. U hind xalqining milliy ongini uyg'otish, milliy g'ururini ko'tarish yo'lidan bordi. Dinga, uning ommani uyushtiruvchi kuchiga katta baho berdi. Tez orada u Puna shahrida mustaqil o'rta maktab tashkil qildi va vatanparvarlik g'oyalarini o'quvchilarga singdira boshladi. 1880-yilda Tilak «Kesari» (Sher) gazetasini tashkil etdi. Yoshlar o'rtasida vatanparvarlik g'oyalarini targ'ib qildi. Hindiston sharoitida qurolli qo'zg'olon yo'li bilan ozodlikka chiqishning iloji yo'qligini anglagan Tilak «kuch ish-latmaslik» tarafdori edi. Bu usulda asosiy e'tibor ingliz tovarlarini boykot qilishga qaratildi. «Xudo Hindistonni xorijiy mamlakatlarga hech qachon hadya qilgan emas» der edi Tilak. Tilak tarafdorlari ommani mustamlakachilarga qarshi nafrat ruhida tarbiyalashardi. Bundan xavfsiragan inglizlar 1897-yili Tilakni bir yarim yilga qamadilar. Lekin tez orada ozod qilishga majbur bo'ldilar.

Milliy-ozodlik harakatini «bo'g'ishga» intilib ingliz mustamlakachilari 1905-yil oktabr oyida Bengaliyani ikki qismga bo'lib tashlashdi. Chunki Bengaliya mustamlakachilikka qarshi kurashning eng kuchli harakat markazlaridan biriga aylangan edi. Bu tadbir aks ta'sirga ega bo'ldi. Hindistonda milliy-ozodlik harakati yangidan kuchayib ketdi. Kalkuttada namoyish bo'lib, unda 100 ming kishi qatnashdi. Xalq «Salom senga, Vatanim - onam» qo'shig'i bilan chiqdi («Bande

mataram»)). Norozilik chiqishlari birin-ketin mamlakatning katta qismini egalladi. Ingliz mollaridan «yuz o'g'irish» kabi o'z-o'zidan boshlanib ketgan harakat savdoda katta zararga aylana boshladi. 1906-yil dekabrda «so'l» radikal oqim talabi bilan Hindiston Milliy Kongressi qo'shimcha qaror qabul qildi. «Svaraj» («o'z hokimiyatimiz»), «Svadeshi» («o'z ishlab chiqarishimiz»), «Ingliz mollariga boykot» xalq orasida katta e'tibor qozondi. Tilak nafaqat ingliz mollaridan, balki ingliz boshqaruvidan ham voz kechishga chaqirdi. Boshqaruvni hindlashtirishga, mahalliy millatni fabrika va zavod qurishga chaqirdi. «Paysa fond» nomli mablag' jamg'armasi tuzdi. Hind sanoati mollarining ko'rgazmalarini tashkil etdi. «Svaraj», «Svadeshi» dasturi ommaga katta ta'sir ko'rsatdi. 1908-yili Bombay viloyatining Surat shahrida Hindiston Milliy Kongressining qurultoyi bo'ldi. Unda «Svaraj», «Svadeshi» dasturidagi asosiy mazmun - «o'z hokimiyatimiz» g'oyasi qabul qilinmadi. Mo'tadil oqim ingliz imperiyasi tarkibida qolish, ayni paytda, o'z-o'zini boshqarish huquqi berilishi haqidagi rezolutsiyani ma'qulladi. Radikal oqim (Tilak boshliq) HMK tarkibidan chiqarildi. Ingliz ma'murlari tez orada «Qo-nUnga xilof» majlislar va matbuot haqida taqiqlovchi qonunlar chi-qardilar va shafqatsiz qatag'onga zo'r berdilar. Ish tashlash harakati-ning rahbarlarini sud qilinmasdan otishga hukm qilina boshlandi. Shu yo'l bilan Hindistondagi ozodlik harakatini vaqtincha bostirishga muvaffaq bo'lindi.

Hindistonning zamindor hukmron doiralari ingliz mustamlakachi ma'muriyati bilan kelishib, 1909-yil noyabrda «Hindiston kengashlari haqida qonun» nomli hujyat qabul qildi. Bu qonunga ko'ra aholining faqat yarim foizigina saylov huquqini oldi. Saylovlar diniy jamoa asosida o'tkaziladigan bo'ldi (ya'ni hindlar va musulmonlar alohida-alohida ovoz beradigan bo'ldilar). Bu «saylov o'yini»dan maqsad hindlar va musulmonlar o'rtasiga nifoq solish edi. 1910-yildan keyin Hindiston Angliyaning bolg'usi jahon urushi reja-larida muhim rol o'ynay boshladi. Shuning uchun ham u Hindistondagi vaziyatni yumshatishga intildi. Chunonchi, 1911-yili mustamlaka ma'muriyati ish vaqtini 12 soat bilan cheklash haqida qonun qabul qildi. 1911 - yil mehnatkashlarning harakatlaridan cho'chigan mustamlaka ma'murlari Kerzon tomonidan bo'lib tashlangan Bengaliyani birlashtirishga majbur bo'ldilar. Poytaxt xavfsizroq hududda joylashgan Dehliga ko'chirildi.